



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 24-aprel

VII-19-33-11-0-K/26

Farg‘ona viloyati

Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini belgilash haqida

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoni 3-bandida muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashabbuskorligini yanada oshirish maqsadida, davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini belgilash vakolati Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga berilgan.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish Agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2026-yil 18-martdagi 01/26-18/95 va 02/29/07-sonli, shuningdek viloyat hokimligi 6-apreldagi 02-7/3964-sonli xatlar orqali xalq deputatlari viloyatlar Kengashlariga murojaat qilib, viloyatda ijara to‘lovlarining eng kam stavkalarini belgilash to‘g‘risida qaror qabul qilinishini so‘ragan.

Ma’lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat mulkini ijaraga berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 33-bandiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish Agentligi tomonidan ishlab chiqilgan 2026-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari belgilangan tartibda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari viloyat kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi PF-98-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish Agentligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2026-yil 18-martdagi 01/26-18/95 va 02/29/07-sonli, shuningdek viloyat hokimligining 6 apreldagi 02-7/3964-sonli xatlari ijro va asos uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i v.v.b F.Turdikovning viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur masala xalq deputatlari viloyat Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilganligi va doimiy komissiya majlisida muhokama qilinib, viloyat Kengashi sessiyasi kun tartibiga kiritish to‘g‘risidagi qarori asos uchun qabul qilinsin.

5. Quyidagilar:

Farg‘ona viloyatida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2026-yilda 1 kv.metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari (iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha) **1-ilovaga** muvofiq;

Davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar **2-ilovaga** muvofiq;

viloyat hokimligi huzuridagi “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” balansida bo‘lgan mavjud davlat ko‘chmas mol-mulkini 2026 yil uchun yillik eng kam ijara stavkalari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Shu munosabat bilan,

Viloyat hokimining 2025-yil 24-yanvardagi “Farg‘ona viloyatida 2025-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 42-11-0-Q/25-son qarori;

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati kengashining 2025-yil 16-sentyabrdagi “Viloyat hokimligi huzuridagi “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” balansida bo‘lgan davlat ko‘chmas mulkidan

foydalanlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini belgilash haqida"gi VII-13-129-11-0-K/25-son qarori 2026-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi (E.Eshonov) davlat mulkini ijaraga berish yuzasidan davlat mulkini balansda saqlovchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan avval tuzilgan shartnomalarni xatlovdan o'tkazish, ularni hisobga qo'yish va shartnomalarni belgilangan tartibda qayta rasmiylashtirish tavsiya etilsin

8. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida" 660-son qaroriga muvofiq byudjetdan moliyalashtiriladigan davlat muassasalari va ularning hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini, qo'shma loyihalarni amalga oshirish guruhlarini davlat mulki bo'lgan binolar va inshootlarga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi "Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5666-son Farmoniga asosan davlat ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish bo'yicha savdolar "E-IJRO AUKSION" elektron savdo maydonchasi orqali amalga oshirilishi belgilanganligi alohida ko'rsatib o'tilsin.

9. Belgilansinki, davlat mulkini balansida saqlovchilarning mansabdor shaxslarga o'z tasarrufida bo'lgan foydalanilmayotgan davlat mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan ob'yektlardan samarali foydalanishni tashkil etish Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasiga o'z vaqtida, to'liq va ishonchli taqdim etib borish tavsiya etilsin.

10. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Sulaymonov) O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi (E.Eshonov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda qo'llanilishi belgilangan ijara stavkalarini e'lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy nashrda e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

12. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining "Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi (R.Kamolov) hamda viloyat hokimining o'rinbosarlari M.Ubaydullayev va N.Mamajonovlar zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



X.Komilov

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2026-yil 24-apreldagi
VII-19-33-11-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

1-ilova

**Farg‘ona viloyatida joylashgan davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun
2026-yilda 1 kv.metr uchun qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari
(iqtisodiy sohalar va tarmoqlar bo‘yicha)**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yil 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to‘lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Farg‘ona shahrida	Boshqa shahar va tumanlarda (Farg‘ona shahardan tashqari)
Ishlab chiqarish			
1	Ishlab chiqarish turlari bo‘yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	17 440	12 090
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	55 260	39 320
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	17 440	12 090
Qurilish sanoati			
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, tunikafon, shifer, sement, senvich panel ishlab chiqarish va yog‘ochni qayta ishlash)	17 440	12 090
5	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog‘ochdan)	58 100	36 970
6	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	92 430	51 840
Yengil sanoat			
7	Yengil sanoat turlari bo‘yicha (to‘qimachilik, tikuvchilik, charm, mo‘yna, poyabzal, sellyuloza-qog‘oz sanoati)	17 440	12 090
Oziq-ovqat sanoati			
8	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog‘, go‘sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta-yem sanoati)	17 440	12 090
9	Chorva (qo‘y) mollarini so‘yish va sotish (jumladan kushxona)	49 270	34 775
10	Sut mahsulotlari sanoati	34 120	24 180
11	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	49 270	30 170

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yil 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Farg'ona shahrida	Boshqa shahar va tumanlarda (Farg'ona shahardan tashqari)
Qishloq xo'jaligi			
12	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	7037 260	4 947 680
13	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	17 550 090	11 878 070
14	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 400	5 990
15	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	15 757 260	10 297 680
16	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4574 620	3 216 310
Transport va aloqa			
17	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	17 440	12 090
18	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 940	4 330
19	Avtomobillarni yuvish	56 460	34 880
20	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	61 585	45 050
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	68 670	48 790
22	Elektromobillarni va elektron jixozlarni quvvatlash shoxobchasi	29 870	21 290
23	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	56 350	39 480
24	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	42 840	30 390
25	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	31 720	22 470
26	Pochta va kuryerlik aloqasi	39 130	27 820
27	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	35 210	24 610
28	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	147 800	104 000
Savdo va umumiy ovqatlanish			
29	Ulgurji savdo	49 270	34 775
30	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	126 550	88 810
31	Chakana savdo	49 270	34 775
32	Sotuvchisiz elektron uskunalar orqali chakana savdoni tashkil etish	119 680	96 090
33	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, oshxona, restoran, fast fud)	49 270	34 775
34	Kitob do'konlari	6 870	5 030

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yil 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Farg'ona shahrida	Boshqa shahar va tumanlarda (Farg'ona shahardan tashqari)
35	Lombardlar	63 660	44 730
Xizmat ko'rsatish			
36	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, internet va kompyuter xizmatlar, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	49 270	34 775
37	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	73 900	52 110
38	Mehmonxona xo'jaligi	56 350	39 480
39	Umumiy yashash joylari (shu jumladan talabalar va o'quvchilar turar joylari)	43 820	30 170
40	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	28 340	19 800
41	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	17 440	12 090
42	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	39 130	27 820
43	Poligrafiya sanoati	42 840	34 775
44	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	39 130	27 820
45	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	35 210	24 610
46	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	8 400	5 990
47	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	42 400	30 170
48	Hammomlar	84 800	59 490
49	Saunalar va basseynlar	168 950	118 880
Turizm xizmatlari			
50	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	52 540	40 340
51	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	41 640	29 640
52	Madaniy meros obyektlarida hostel va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	98 860	75 650
53	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	77 170	54 360
54	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish	87 960	61 740

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yil 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Farg'ona shahrida	Boshqa shahar va tumanlarda (Farg'ona shahardan tashqari)
	shoxobchalari (restoran, kafe, fas-fud va h.k)		
55	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	56 350	39 480
Sog'liqni saqlash			
56	Davolash maskani (statsionar davolash)	32 300	23 000
57	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stamatologiya, fizioterapiya)	99 500	79 500
58	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatib foydalanish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	123 100	103 100
59	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	124 100	104 100
60	Fitobar	22 300	16 000
61	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	59 300	29 200
62	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	32 300	23 000
63	Ijtimoiy-dorixonalar	25 070	16 050
Jismoniy tarbiya va sport			
64	Sport maydonlari (stadionlar)	31 940	26 000
65	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	17 440	12 090
66	Fitnes va yengil atletika zallari	139 520	115 560
Ta'lim			
67	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalari)	32 300	23 000
68	Tayyorlov kurslari (shu jumladan: IT, til kurslari, malaka oshirish va repitetorlik)	53 300	38 600
69	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	34 335	24 290
70	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	25 890	18 190
71	Madaniyat va san'at	49 270	34 775
72	Ko'rgazmalar	38 040	27 930
73	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, istirohat bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	35 210	24 610
74	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	56 350	39 480
75	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	21 360	14 770
76	Avtomaktablar	31 230	17 550
77	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	17 440	12 090
Moliya-kredit faoliyati			
78	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va	49 270	34 775

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yil 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Farg'ona shahrida	Boshqa shahar va tumanlarda (Farg'ona shahardan tashqari)
	auditorlik faoliyatidan tashqari)		
79	Auditorlik faoliyati	49 270	32 530
80	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	77 170	54 360
81	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	49 270	34 775
82	Bankomatlar	705 230	495 730
83	Paynetlar	141 370	99 240
84	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (kassalar)	141 370	99 240
85	Front-ofislar (Banklar uchun)	60 170	48 365
86	Bank xizmatlari ofisi	49 270	34 775
87	Sug'urta faoliyati	42 400	34 775
88	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	77 170	54 360
Faoliyatning boshqa turlari			
89	Notarial xizmatlar	49 270	34 775
90	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	42 400	30 175
91	Jamoat birlashmalari	14 225	9 740
92	Omborxonalar	49 270	34 775
93	Davlat korxonalar va muassasalari	21 360	14 770
94	Xususiy tashkilotlarga ofis	77 170	54 360
95	Arxiv xizmati	21 360	12 360
96	Tahririyat va nashriyotlar	28340	19 795
97	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	28 340	19 795
98	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	35 210	24 610

Izoh: Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.09.2023-yildagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2026-yil 24-apreldagi
VII-19-33-11-0-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2-ilova

**Davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalariga
qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsientlar**

T/r	Ijara obyektlarining joylashgan o‘rni va turlari bo‘yicha	Qo‘llaniladigan koeffitsientlar			
		Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlar xududlari bo‘yicha	Tumanlar markazlari hamda Quvasoy shahar bo‘yicha	Tumanlar hududlari bo‘yicha (tuman markazlaridan tashqari)	Farg‘ona tumani Shoximardon MFY va Yordon MFY, Rishton tumani Cho‘ng‘ara MFY
1.	Ijara obyektining hududiy zonalarini bo‘yicha koeffitsienti (Kz)	2,5	2	1,5	1,3
1.1.	Radio, uyali va peydjning aloqa antennalari o‘rnatish uchun*	1,8			
2.	Ijara obyektining qurilish turi bo‘yicha koeffitsient (Kq)	-	-	-	-
	Jumladan:				
	-alohida turadigan binolar uchun	2	1,5	1,5	1,3
	-qo‘shimcha qurilgan binolar uchun	1,5	1,4	1,4	1,2
	-cherdak qismi uchun	0,4	0,4	0,4	0,3
	-bolaxona qismi uchun	0,5	0,5	0,5	0,4
	-tom qismi	0,5	0,5	0,5	0,4
	-yarim yerto‘la va aloxida yerto‘la qismi uchun	0,5	0,5	0,5	0,4
2.1.	Radio, uyali va peydjning aloqa antennalari o‘rnatish uchun*	-	-	-	-
	Jumladan:				
	-hona uchun	1			
	-bino tom qismi uchun	0,4			

T/r	Ijara obyektlarining joylashgan o'rnini va turlari bo'yicha	Qo'llaniladigan koeffitsientlar			
		Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlar xududlari bo'yicha	Tumanlar markazlari hamda Quvasoy shahar bo'yicha	Tumanlar hududlari bo'yicha (tuman markazlaridan tashqari)	Farg'ona tumani Shoximardon MFY va Yordon MFY, Rishton tumani Cho'ng'ara MFY
3.	Tutash hududdan foydalanish koeffitsienti (texnik maydon, dehqonchilik maqsadida va xakazo) (Kh)	1	0,8	0,8	0,7
3.1.	Radio, uyali va peydjning aloqatexnik qurilmalar joylashtirilgan maydon*	1,1			
4.	Ijara obyektidan tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsienti (Ko) (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).	2	1,5	1,5	1,3
4.1.	Radio, uyali va peydjning aloqa antennalari o'rnatish tom qismi uchun* (Ko)	0,3			
4.2.	Radio, uyali va peydjning aloqa antennalari o'rnatish xona va texnologik maydon uchun* (Ko)	1			

* Radio, uyali va peydjning aloqa antenna va boshqa texnik qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna yoki boshqa texnik qurilmalarni tortqich qoziqlari egallagan umumiy maydon bo'yicha hisoblanadi.

Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$Ts = Es * Kz * (Kq + Kh + Ko)$$

Bunda:

Ts — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

Es — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

Kz — hududiy zonalar koeffitsiyenti;

Kq — Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent;

Kh — tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

Ko — tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo‘llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyent (Kq), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko)ning yig‘indisi 1 birlikdan kam bo‘lgan taqdirda, yaxlitlangan

holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlarning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsiyent;

- Qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyent (Kq) – davlat mulki obyektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yertulasi, yarim yer to‘lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo‘yicha belgilanadigan koeffitsiyent.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to‘liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo‘yicha alohida turgan bino koeffitsiyenti qo‘llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yertulasi, yarim yer to‘lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyent ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo‘llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) – ushbu koeffitsiyent davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to‘liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo‘llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo‘llaniladi.

Ushbu koeffitsiyent qo‘llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to‘lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko) – ushbu koeffitsiyent obyekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo‘llariga tutash hududlarda joylashgan bo‘lsa asosiy avtotransport yo‘lida joylashgan hisoblanadi. Mahallalar ichki ko‘chalarida joylashgan bo‘lsa ikkinchi darajali avtotransport yo‘lida joylashgan hisoblanadi.

Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati
Kengashining
2026-yil 24-apreldagi
VII-19-33-11-0-K/26 -son qaroriga
3-ilova

3-ilova

Viloyat hokimligi huzuridagi “Kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha yagona direksiyasi” balansida bo‘lgan mavjud davlat ko‘chmas mol-mulkini 2026 yil uchun yillik eng kam ijara stavkalari

T/R	Hudud nomi	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Yillik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda (QQS bilan birga)	
				Viloyat markazi Farg‘ona shahri uchun	Boshqa xududlar uchun
1	Farg‘ona	Bino-inshootlar (noturar joylar)	Umumiy maydonning 1 kv. metri uchun	44 768	26 480

Izoh: 2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari belgilangan taqdirda xam ijara to‘lovining yuqori bo‘lgan stavkasi qo‘llaniladi.